

QORAQALPOQ BASTAKORLARI IJODI

Matjanova Munajat Urazbaevna

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

***Annotatsiya:** Maqolada musiqa madaniyatimizning bugungi kunning ulkan ijod maydoni ekanligi va Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlashtirish jarayonida faol ijod qilgan qoraqalpoq bastakorlari ijodi haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Musiqa madaniyati, bastakor, musiqiy asarlar, spektakllar, Vatan, baxshi, musiqashunos, kompozitor.*

Musiqiy madaniyat xalq ma’naviy dunyosining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy ehtiyojini barcha davrlarda beminnat xizmat qilgan. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoni. O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasining a‘zolari Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlashtirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar va qolaversa, yangi-yangi musiqiy asarlar, spektakllar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. Shu bilan birga uyushma a‘zolari respublikamizda har yili o‘tkazilayotgan «O‘zbekiston — Vatanim manim», —Yagonasan, muqaddas Vatan qo‘shiq tanlovlarida, har ikki yilda o‘tkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida faol qatnashmoqdalar. Musiqa festivallari hamda tanlovlarida kompozitor va musiqashunoslar faol ishtirok etmoqdalar.

O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay’ati a‘zosi, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, san’atshunoslik fanlari nomzodi Tojigul Adamboeva qoraqalpoq ayollaridan chiqqan birinchi olima-musiqashunoslardan. U xalq musiqa merosi, baxshilar ijodi hamda zamondosh san’atkorlar faoliyatini o‘rganish va targ‘ib qilishi bilan respublika musiqa madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shdi. Adamboeva Tojigul 1931 yil 20 may kuni Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l shahrida dunyoga keldi.

Bolaligidan ota-onasidan ayrilib bolalar uyida tarbiyalandi. 1940-1943 yillarda musiqa maktabining fortepiano sinfida o‘qidi. 1943-1950 yillarda R.Glier nomidagi Respublika musiqa maktab-internatida o‘qidi. 1950-1955 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasining musiqashunoslik fakultetida professor YA.B.Pekker rahbarligida tahsil olib, «Qoraqalpoq xalq musiqasi tarixi» mavzuida diplom ishini yoqladi. T.Adamboeva 1955 yildan Nukus shahri musiqa maktabida fortepiano va musiqa nazariyasidan dars berdi, Respublika Radio qo‘mitasining badiiy rahbari sifatida

faoliyat yuritdi. 1959 yili O‘zbekiston fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filiali Nukus shahrida ochilishi bilan T.Adamboeva institutning san‘atshunoslik bo‘limiga ishga taklif etildi.

Mazkur dargohda u ilmiy xodim va bo‘lim mudiri vazifalarida uzoq yillar davomida ishladi. Shu sababli uning ijodiy-ilmiy faoliyati shu dargoh va 1966 yilda tashkil etilgan Qoraqalpog‘iston Bastakorlar uyushmasi bilan bog‘landi. 23 T.Adamboeva O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi a‘zoligiga 1968 yilda qabul qilingan. Shu yili «Muzikalnaya kultura karakalpaxskogo naroda» mavzusida dissertatsiyasini yoqladi va san‘atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Musiqashunos T.Adamboeva xalq musiqa merosini o‘rganish maqsadida folklor ekspeditsiyalarida qatnashib mashhur baxshilardan kuy, qo‘shiq va dostonlarni magnit tasmlariga yozib oldi, ularni notaga tushirib to‘plamlar tuzdi. T.Adamboeva «XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning musiqiy madaniyati», XIX asrda yashab ijod etgan mashhur baxshi «Muso Turumov hayoti va ijodiy faoliyati», O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artistlari, bastakor J.Shomurotov va kompozitor O.Halimovlarga bag‘ishlangan yirik monografiyalarni chop etdi. Uzoq yillar davomida T.Adamboeva ilmiy ishlardan tashqari Qoraqalpog‘iston Bastakorlar uyushmasi ishlarida faol ishtirok etib keldi. Bir necha yil uyushma hay‘ati raisi ham bo‘ldi. O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay‘ati a‘zosi etib saylandi. Tojigul Adamboeva serg‘ayrat ilmiy-ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa madaniyatiga, qoraqalpoq san‘atshunoslik faniga katta hissa qo‘shdi.

Qoraqalpoq Bastakorlaridan biri Karomatdin Utegenov haqida aytadigan bo‘lsak, Karomatdin Utegenov (1924-1998) Qoraqalpoq Avtonom Respublikasi zamonaviy musiqa san‘atining namoyandalaridan biri, musiqashunos Karomatdin Utegenov turli mavzularda yozilgan ilmiy va ommabop maqolalari, og‘zaki ma‘ruzalari pedagogik va jamoatchilik faoliyati bilan respublika madaniy hayotida faol qatnashdi va el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi. Yillar davomida chop etilgan va nashr qilinmagan ko‘p ilmiy maqolalar, darslik va qo‘llanmalar yozdi.

1978 yili Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi. Karomatdin Utegenov Nukus shahrida 1924 yilning 30 dekabrda dunyoga keldi. 1939 yildan To‘rtko‘l bolalar musiqa maktabining fortepiano sinfida o‘qidi. 1946-1948 yillarda K.Stanislavskiy nomidagi musiqa teatrida xor artisti, 1948-1949 yillarda Nukus shahridagi 4-bolalar bog‘chasida pianinochi bo‘lib ishladi. 1949-1952 yillarda harbiy xizmatni bajarib, 1952-1956 yillarda Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtining musiqa nazariyasi va tarixi bo‘limida o‘qidi. 1956-1961 yillarda esa Toshkent davlat konservatoriyasining musiqa nazariyasi va tarixi

fakultetida tahsil oldi. Bu ikki o‘quv dargohlar K.Utegenovning musiqashunos bo‘lib etishib chiqishida muhim rol o‘ynadi.

Musiqashunos K.Utegenov Toshkentdagi ish faoliyatini o‘qish bilan birgalikda boshladi. U 1957-1958 yillarda bolalar musiqa maktabida dars berdi. 1960-1961 yillarda Hamza nomidagi Toshkent san’atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida musiqa bo‘limi laboranti lavozimida ishladi. 1961 yili «Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari» mavzuidagi diplom ishi bilan konservatoriyani bitirgach, 1961-1963 yillarda Nukus davlat musiqa o‘quv yurtida pedagog va ilmiy mudir, 1963-1965 yillari K.Stanislavskiy nomli musiqa teatrida kontsertmeyster, 1966-1971 yillarda Nukus shahrining 1-son bolalar musiqa maktabida o‘qituvchi va 1961-1990 309 yillarda J.SHomuratov nomidagi Nukus davlat musiqa bilim yurtida o‘qituvchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi.

1984-1986 yillarda Qoraqalpoq Bastakorlar uyushmasining mas’ul kotibi lavozimida ishladi. Musiqashunos K.Utegenov pedagoglik faoliyati bilan birga umrining oxirigacha ilmiy-nazariy ishlar bilan ham shug‘ullanib keldi. Uning qalamidan quyidagi kitob va maqolalar bunyodga keldi: 1966 yili o‘rta ta’lim maktablarining 5-8-sinflari va 1968 yili 1- 4-sinflari uchun «Musiqiy kitob»larni Davlatmurodova bilan hamkorlikda yozdi. Ular 1970 yili birinchi sinflar uchun «Musiqi alifbosi», 1973 yili sinflar uchun «Ashula darsligi»ni, 1-7- sinflar uchun «Ashula aytish» dasturini yaratdilar. K.Utegenov N.A.Rimskiy-Korsakovning «Prakticheskiy uchebnik garmonii» (1966), V.A.Vaxromeevning «Elementar musiqa nazariyasi» (1969), B.Shteynpress va I.Yampolskiylarning «Kratkiy slovar lyubitelya muziki», Evseev, Sokolov, Dubovskiylarning «Garmoniya darsligi» darsliklarini rus tilidan qoraqalpoq tiliga tarjima qildi. Yillar davomida turli mavzularda ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari gazeta va jurnallarda chop etildi.

Demak, bastakorlarimiz o‘zlarining ko‘p qirrali ijodiy faoliyati bilan ko‘p millatli respublikamiz musiqa san’ati va musiqashunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi

ADABIYOTLAR

1. A.H.Jabborov. O‘zbek kompozitorlari va musiqashunoslari. –T., 2004.
2. N.S.Yanov-YanovskaY. Fortepiannaya muzika v sb. Istoriya uzbekskoy sovetskoy muziki ”, II tom-T. 1973.
3. T.A.Galovyans., E.S.Meyke. Kompozitori i muzikovedi Uzbekistana.-T.1999.